

PAPER

YAPON ADABIYOTIDA MONOGATARILARNING AHAMIYATI

Erkinova Ruxshona O'tkirovna^{1,*}

¹Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

*erkinova@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada yapon adabiyotida monogatarilarning ahamiyati tahlil qilinadi. Monogatarilar faqat badiiy janr bo'libgina qolmay, balki yapon madaniyati, urf-odatlari va tarixini aks ettiruvchi muhim adabiy hodisa sifatida baholanadi. Tadqiqotda monogatarilar tarixi, janr xususiyatlari, yapon jamiyatiga ta'siri va ularning zamonaviy adabiyotdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Key words: yapon adabiyoti; monogatari; tarixiy roman; madaniyat; badiiy janr; hikoya qilish an'analari.

Kirish

Yapon adabiyoti dunyoning eng boy va qadimiy adabiyotlaridan biri bo'lib, o'ziga xos janr va uslublarga ega. Ushbu adabiyotning rivojlanishida monogatarilar alohida o'rinn tutadi. Monogatari (物語) so'zi yapon tilida "hikoya qilish", "rivoyat", "qissa" ma'nolarini anglatadi. Bu janrning ilk namunaları VIII-IX asrlarda paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik u epik roman darajasiga yetib, yapon madaniyatining muhim qismiga aylangan. Ushbu maqolada mono-gatari janrining mazmuni, ularning yapon adabiyotida tutgan o'rni, janrning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy adabiy-otga ta'siri tahlil qilinadi.

Birinchi navbatda, monogatari so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, デジタル大辞泉 Digital Daijisenda quyidagi ta'rif keltir-ilgan: 文学形態の一。作者の見聞や想像をもとに、人物・事件について語る形式で叙述した散文の文学作品。(Adabiy janrlardan biri. Yozuvchining kechinmalari va tasavvurlari asosida odamlar va voqealari-hodisalar haqida hikoya qiluvchi nasriy asar.)

Yapon adabiyotida monogatari janri muhim o'rinn egallaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ushbu janr VIII-IX asrdan boshlab rivojlanib, asosan, qahramonlar va turli xil voqealarni tasvirlovchi asar sifatida shakllangan. Monogatarilar faqat badiiy asar sifatida emas, balki yapon xalqining hayot tarzi, urf-odatlari va ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi madaniy fenomen sifatida ham baholanadi. Ushbu janr yapon aristokratlarining hayotini, urf-odatlarini, muhabbat va sarguzashtlarni, urushlar tarixini hikoya qilish orqali jamiyatning turli qatlamlariga ta'sir o'tkazgan. Murasaki Shikibuining "Genji monogatari" (XI asr) asari bu janrning eng mashhur namunasidir. "Genji monogatari" singari klassik asar nafaqat

yapon adabiy merosining ajralmas qismi hisoblanadi, balki ko'plab chet ellik tadqiqotchilar tomonidan dunyo tarixidagi birinchi roman sifatida e'tirof etiladi.

Monogatarilar asosan quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlangan:

1. Fantastik monogatarilar – mifologik voqealar va afsonalarga asoslangan asarlar.
2. Romantik monogatarilar – aristokratlar hayoti, sevgi va jamiyatdagi munosabatlarni tasvirlovchi asarlar.
3. Harbiy monogatarilar – tarixiy janglar va qahramonlik haqida hikoya qiluvchi asarlar.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot sifat jihatidan empirik va tarixiy-lingvistik metodlarga asoslanadi. Quyidagi usullar ishlatalig'an:

1. Tarixiy tahlil

Monogatarilarning kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganish maqsadida tarixiy tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali turli davrlarga oid monogatarilar o'rganilib, ularning yapon adabiyotidagi o'rni baholandи.

2. Adabiy tahlil

Yapon adabiyotining klassik va zamonaviy asarlarida monogatarilarning janr xususiyatlari o'rganildi. Jumladan, "Taketori monogatari", "Genji monogatari" hamda "Heike monogatari" kabi asarlar tahlil qilindi.

3. Taqqoslash usuli

Turli davr monogatarilarining o'ziga xos xususiyatlari sol-ishtirilib, ularning janr dinamikasi va evolyutsiyasi ko'rib chiqildi. Masalan, Heian davrining monogatarilari bilan Kamakura davrining tarixiy monogatarilari taqqoslandi.

4. Kontekstual yondashuv

Monogatarilarning yapon madaniyatiga va jamiyatiga ta'sirini o'rganish uchun kontekstual tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul yordamida monogatarilar va yapon ijtimoiy hayoti o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

Natijalar

Monogatarilarning kelib chiqishi va rivojlanishi

Monogatarilar VIII asrda shakllana boshlagan. Dastlabki namular "Taketori monogatari", "Ochikubo monogatari" va "Utsuhu monogatari" kabi afsonaviy hikoyalar, shuningdek, "Ise monogatari", "Yamato monogatari" kabi she'riy qissalardan iborat bo'lib, keyinchalik "Genji monogatari" singari epik asarlarga aylangan. Keyinchalik, tarixiy, didaktik hamda harbiy monogatarilar shakllanib boradi. Ushbu janrning rivojlanish bosqichlari quyidagicha:

1. Heian davri (794–1185) – aristokratlar va boshqa yuqori qatlarni vakillari haqidagi hikoya qiluvchi monogatarilar ("Taketori monogatari", "Ise monogatari", "Utsuhu monogatari", "Genji monogatari" kabilari).

2. Heian davri o'rtalari – tarixiy voqealarni hikoya qiluvchi monogatarilar ("Eiga monogatari", "Okagami", "Imakagami", "Mizukagami")

3. Heian davri oxirlari va Kamakura davri (1185–1333) – xalq og'zaki ijodi hamda Buddizm dini ertaklariga asoslangan didaktik monogatarilar ("Konaku monogatari" va "Uji Shui monogatari")

4. Kamakura davri (1185–1333) va Muromachi davri (1336–1573) – tarixiy urushlarga asoslangan jangovar va harbiy mazmundagi monogatarilar ("Heike monogatari", "Taheiki" va boshqalar).

5. Edo davri (1603–1868) – afsonaviy elementlarga ega qiziqarli hamda sarguzasht hikoyalar ("Ugetsu monogatari" va "Nanso Satomi Hakkenden" va boshqalar).

Monogatarilarning janr xususiyatlari

Monogatari janrining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Qahramon markaziy o'rinda bo'lishi – hikoya qahramonning hayoti atrofida quriladi.

Voqealar tasviri batafsil bo'lishi – tarixiy va madaniy tafsilotlar muhim o'rinni tutadi. Lirik va badiiy uslub – monogatarilarda poetik til va tasviriy san'at keng qo'llaniladi. Yapon adabiyotida monogatarilarning roli

Monogatarilar yapon madaniyati va jamiyatining aks etishiga xizmat qilgan. Ular quyidagi jihatlarda muhim rol o'ynagan:

Madaniy meroj sifatida – aristokratlarning hayot-tarzi va urfatotlarini aks ettirgan. Ijtimoiy strukturani yorituvchi manba sifatida – turli ijtimoiy qatlamlarning hayotini tasvirlagan.

Estetik va badiiy tajriba – poeziya va hikoya qilish san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Zamonaviy yapon adabiyotida monogatarilarning ta'siri

Hozirgi yapon adabiyotida monogatarilar an'anaviy hikoya qilish uslubining davomchisi bo'lib qolmoqda. Murakami Haruki va Yoshimoto Banana singari zamonaviy yozuvchilar o'z asarlarda bu an'analarni modernizatsiya qilishmoqda.

Muhokama

Monogatarilar yapon adabiyotining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Ushbu janr aristokratik madaniyatning ifodasi sifatida boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik keng ijtimoiy omma uchun ham qiziqarli janrga aylangan.

1. Janrning rivojlanish tendensiyalari

Monogatari janri turli davrlarda o'zgarib borgan. Dastlab aris-tokratlar uchun yozilgan afsonaviy hamda romantik mazmundagi hikoyalar sifatida boshlangan bo'lsa, keyinchalik tarixiy va harbiy voqealarni aks ettiruvchi asarlarga aylangan.

2. Zamonaviy yapon adabiyotiga ta'siri

Monogatarilar yapon hikoya qilish san'atining asosini tashkil etgan. Hozirgi kunda ham anime, manga va zamonaviy romanlarda monogatarilarning hikoya tuzilishi va badiiy uslublari keng qo'llanilmoqda.

3. Madaniy va global ta'sir

Monogatarilar nafaqat Yaponiyada, balki xalqaro miqyosda ham qiziqish uyg'otmoqda. Yapon adabiyoti va jahon adabiyotining dur-dona asari sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan, dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan "Genji monogatari" asari monogatari janrida yozilgan bo'lsa-da, chet ellik yapon adabiyoti mutaxassislari tomonidan "dunyodagi eng qadimiy roman" sifatida yuqori ba-holangan.

Xulosa

Monogatari janri yapon adabiyotining ajralmas qismi bo'lib, tarixiy rivojlanish jarayonida muhim o'rinni egallab kelgan. Ushbu janr yapon jamiyatining madaniy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishda katta rol o'ynagan. Zamonaviy adabiyotda ham monogatarilar hikoya qilish san'ati sifatida o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Monogatarilar yapon adabiyotining eng qadimiy va muhim janrlaridan biri bo'lib, uming shakllanishi VIII–IX asrlarga borib taqaladi. Bu janr nafaqat badiiy ijod namunasi, balki yapon madaniyatining, tarixining va ijtimoiy hayotining aks ettiruvchi vositali sifatida ham katta ahamiyatga ega. Monogatarilar orqali erta o'rtas asr hamda o'rtas asrlar yapon jamiyatining ijtimoiy tuzilishi, an'analari, urf-odatlar va qadriyatlari o'quvchilarga yetkazilgan.

Taddiqot natijalari shuni ko'rsatadi, monogatarilar aristokratik adabiyot sifatida boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik harbiy voqealar, tarixiy hodisalar va xalq og'zaki ijodi unsurlarini ham qamrab olgan.

"Genji monogatari" kabi asarlar butun dunyo adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatib, epik roman janrining rivojlanishiga turki bo'lgan.

Zamonaviy yapon adabiyotida monogatarilarning an'anaviy hikoya qilish uslublari saqlanib qolgan bo'lib, ular anime, manga va zamonaviy romanlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, monogatarilar yapon adabiyotining ajralmas qismi bo'lib, ularning hikoya tuzilishi, badiiy vositalari va madaniy ahamiyati hanuzgacha dolzarbligini yo'qotmagan. Bugungi kunda ham ushbu janrning o'ziga xos xususiyatlari yapon san'ati va adabiyotida namoyon bo'lib kelmoqda. Shu sababli, monogatarilarni tadqiq qilish va ularning evolyutsiyasini o'rganish yapon adabiyotini chuqur tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

References

1. Bowring, R. (2004). The Cambridge History of Japanese Literature. Cambridge University Press.
2. Carter, S. (1991). The Japanese Way of Storytelling. University of California Press.
3. Dorsey, J. (2010). Literature and Identity in Heian Japan. University of Michigan Press.
4. Frow, J. (2006). Genre: The New Critical Idiom. Routledge.
5. Ikegami, E. (2005). Bonds of Civility: Aesthetic Networks and the Political Origins of Japanese Culture. Cambridge University Press.
6. Katō, S. (1997). A History of Japanese Literature. Kodansha International.

7. Keene, D. (1999). *Seeds in the Heart: Japanese Literature from Earliest Times to the Late Sixteenth Century*. Columbia University Press.
8. Komashaku, T. (2001). *Aesthetics of Japanese Classical Literature*. Columbia University Press.
9. McCullough, H. (1985). *Classical Japanese Prose: An Anthology*. Stanford University Press.
10. Miller, R. (1977). *Japan's First Novel: The Tale of Genji*. Charles E.Tuttle Publishing.
11. Miner, E. (1969). *Japanese Tradition in Literature*. Princeton University Press.
12. Miyake, T. (2003). *Historical Narratives in Japanese Literature*. Routledge.
13. Noguchi, Y. (1982). *Early Japanese Literature: An Anthology*. Oxford University Press.
14. Parkes, G. (1997). *Japanese Aesthetics and Culture*. University of Hawaii Press.
15. Suzuki, T. (1995). *Narrative Strategies in The Tale of Genji*. Harvard University Press.
16. Tyler, R. (2001). *The Tale of Genji*. Penguin Classics.
17. Shirane, H. (2008). *Traditional Japanese Literature: An Anthology, Beginnings to 1600*. Columbia University Press.
18. Shirane, H. (2012). *Japan and the Culture of the Four Seasons: Nature, Literature, and the Arts*. Columbia University Press.